

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA OQISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA NOAN`ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI**

Ziyoqulova Aziza Shuhrat qizi

Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti

Ta'lif tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lif) 2- kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o`quvchilarining ona tili va o`qish savodxonligi darslarida faol ishtirok etishida, yozma va og`zaki nutqini rivojlanishda, mustaqil fikrlashda, xulosa chiqarishda noan'anaviy usullardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so`zlar. *Ona tili va o`qish savodxonligi, noan'anaviy usul, mustaqil fikrlash, usul va metodlar.*

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo`lgan yoshlarning ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko`nikma va malakalarini davlat ta'lif standartlari hamda milliy o`quv dasturi asosida shakllantirish, ta'lif tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jamiyat oldida turgan eng asosiy vazifalaridan biri-sog`lom avlodni voyaga etkazish. Bu muhim vazifani amalga oshirish - birinchi navbatda o`qituvchiga bog`liq.

O`qituvchilarning o`zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko`nikmasini shakllantirishi, ya`ni noan'anaviy usulda dars o`tishni yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o`quvchi o`zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi hamda o`quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o`zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O`qituvchi faqat yo`riq ko`rsatuvchi vazifasini bajaradi.

Boshlang`ich ta'linda ona tili va o`qish savodxonligini o`qitish asosiy o`rinni egallaydi. Shu bois quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi:

1. Savod o`rgatish, sinfdan tashqari o`qish va nutq o`stirish.
2. Sinfda, sinfdan tashqarii o`qish va nutq o`stirish.
3. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o`stirish.

Ona tili va o`qish savodxonligi darslari o`quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o`stirish bilan bir qatorda, ularda va estetik tasavvurlarni shakllantirish, nafosat hissini tarbiyalash, mantiiqiy tafakkur yuritishga o`rgatish, bilim manbai bo`lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishni nazarda tutadi.

Ona tili fanidan “Tovushlar va harflar”, “So`z”, “Gap”, “Boshlanishli nutq” va “Husnixat”, o`qish savodxonligi fanidan “Ertaklar yaxshilikka yetaklar”, “Ona tilim-jonu dilim”, “O`zbek bolalar adabiyoti”, “Jahon bolalar adabiyoti” bo`limlarini o`qitish jarayonida o`qituvchi o`zining bor mahoratini ko`rsatib, ona tili va o`qish savodxonligi darslarini noan'anaviy tarzda o`tib, o`quvchilarni qiziqtira olishi, shu bilan birga ularning grammatik savodini rivojlanirib borishi lozim.

Ilg`or pedagogik texnologiyaning juda ko`p usullari mavjud bo`lib ular semenar darslar, konferentsiya darslari, “Aqliy hujum”, “Kichchik guruhlarda ishlash”, “Singkven”, “BBB” (bilar edim, bilishni hohlayman, bilim oldim), “Debatlar”, “Taqnidiy tafakkur” metodlari va “Estafeta”, “Kim tez topadi?” usullaridir. Bu metod va usullardan o`quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin. Ona tili va o`qish savodxonligi darslarini o`qitishda noan'anaviy dars usuli yuqori samara bermoqda. O`qituvchi bir soatlik dars davomida mana shu metodlarning bir nechtasidan samarali foydalana olsa, u ilg`or pedagogik texnologiya asosida noan'anaviy dars o`tgan bo`ladi. Shu o`rinda quyidagi usullardan namunalar keltiramiz “Estafeta” usuli.

Ona tili fanidan ma'lum bo'llim va bobni takrorlashda estafeta o'yini shaklidan foydalansa bo'ladi. Buning uchun sinf o'quvchilari ikki guruhgaga bo'linadi. Guruhlar soniga mos ravishda hakamlar o'quvchilarning javoblariga baho qo'yib boruvchilar tayinlanadi. O'yin boshlanishi bilan har ikki guruhdan boshqaruv stoli yoniga bittadan o'quvchi keladi va bittadan savol olib o'z guruhi yoniga qaytadi. Agar u savolga javobni bilsa, guruh bilan maslahatlashib o'tirmasdan hakam qarshisiga boradi va javob bergach, tezgina savol qog'ozchasini galadagi guruhdoshiga tutqazadi. O'yin har ikki guruh o'quvchilari bittadan savol olib bo'lguncha davom etadi. So'ngra qo'yilgan ballar asosida guruh g'olibi aniqlanadi.

“Kim tez topadi?” usuli. O'quvchilar guruhgaga ajratiladi. O'yinning sharti: Shunday so'zlarni topingki, ularning bosh harfi olib tashlansa ham ma'lum ma'no bildirsin. Birinchi guruh o'quvchilari ot bilan otga: ikkinchi guruh fe'l bilan fe'lga, uchinchi guruh aralash so'z turkumlariga misollar yozadilar.

1-guruh	2-guruh	3-guruh
qasr-asr	sochmoq-ochmoq	sariq-ariq
choy-oy	sotmoq-otmoq	ayamoq-yamoq

Vaqtning bo`lishiga qarab, o'yinning ikkinchi qismida guruh qatnashchilari o'zları yozgan so'zlarga misol keltiradilar. Qasr, asr misoliga shunday gapni keltirish mumkin: Qo'shnimiz shunday uy qurdi desangiz, uy emas-qasr.

Noan'anaviy darslarni o`tish uchun o`qituvchi ham o`quvchi ham puxta tayyorgarlik ko`rishlari kerak, yani har bir mavzuga o`qituvchi ko`rgazmali qurol, rangli rasmlar, tarqatma materiallar bo`lishi muhim.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, noan'anaviy darslarda o`quvchining faol ishtirok etishi, uning yozma va og`zaki nutqimi rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga, o`ylashga va xulosa chiqarishga o`rgatadi. Bunday darslarda o`quvchi zerikmaydi, faol qatnashadi, dars qiziqarli bo`lganligi uchun ham o`tilgan mavzu hamda dars uning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g`risida”gi PF-6084-sonli Farmoni // qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 21.10.2020 y. 06/20/6084/1398-sont.

2. Ishmuhamedov R.M.Mirsolieva.“O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent - 2014. “Fan va texnologiya” nashriyoti.
3. Qosimova K., Matchonov C., G`ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: Noshir, 2009. - 352 b.
4. P.Safarov «Ona tili va adabiyot darslaridan ta’limiy o‘yinlardan forydalanish» Samarqand. -2000 y.
5. Kenjayeva M.A. Ona tili fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati //Fanlarni o‘qitishda innovatsion metodikalar. Respublika masofaviy ilmiy seminar materiallari. - Toshkent-Samarqand. 2020. - B. 44.